

FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIYATLARDA QO‘LLANILADIGAN USULLAR

Suvorova Lyudmila Valentinovna

Guliston shahar favqulotda vaziyatlar bo‘limi yetakchi inspektori

Annatatsiya: *Bu maqolamizda bu mavzuga oid ko‘p narsalarni yoritganmiz. Bu soha egalari juda qiyin vaziyatlar yuzaga keladigan soha hisoblanadi. Asosan maqolada bu vazirlikda ishlaydigan insonlar qanday vazifani bajarishi haqida yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *farmon, favqulodda, mazkur, FVDT, idoralar, kengash.*

Abstract: *We have covered a lot of things in this article. Owners of this field are in a very difficult situation. Mainly, the article covers the duties of the people working in this ministry.*

Kay words: *Commond, emergency, in question, FVDT, office, board.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 4-martdagi farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda Vaziyatlar Vazirligi tashkil etilgan bo‘lib, mazkur farmon bo‘yicha vazirlikning vazifalari quyidagicha belgilangan:

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, aholi hayoti va salomatligini, moddiy va ma‘naviy qadriyatlarini muhofaza qilish, shuningdek tinchlik va harbiy davrda favqulodda vaziyatlar vujudga kelganda ularning oqibatlarini tugatish hamda zararini kamaytirish sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday hollardagi harakatlarini boshqarishning davlat tizimi (FVDT)ni tashkil etish va uning faoliyatini ta‘minlash;

O‘zbekiston Respublikasining fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilish;

Vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kenashi, hokimliklarning aholini va milliy boyliklarini muhofaza qilish, avariya, halokatlar va tabiiy ofatlar tufayli vujudga kelgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga doir faoliyatini muvofiqlashtirib borish;

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga, aholini, mamlakat hududini muhofaza qilishga hamda ular vujudga kelgan taqdirda xalq xujaligi ob‘ektlari faoliyatining barqarorligini oshirishga, shuningdek aholini, mansabdor shaxslarni hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday hollardagi harakatlarni boshqarishning davlat tizimi tuzilmalarini tayyorlashga qaratilgan maqsadli va ilmiy-texnik dasturlarni ishlab chiqishni tashkil etish va amalga oshirish

Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish uchun moliya, oziq-ovqat, tibbiyot va moddiy-texnika resurslarining davlat favqulodda zaxira fondlarini tashkil etishga doir ishlarni muvofiqlashtirib borish va hokazo. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi faoliyati samaradorligini yanada oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi to‘g‘risidagi nizom hamda O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi faoliyati ustidan davlat boshqaruvi va nazorati sxemasi 1 va 2-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

2. Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda boshqa tashkilotlarga aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha 3 va 4-ilovalarga muvofiq funksiyalar yuklansin.

3. Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek boshqa tashkilotlar uch oy muddatda O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining tegishli funksional va hududiy quyi tizimlari to‘g‘risidagi nizomlarni qayta ko‘rib chiqsinlar hamda O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan kelishgan holda tasdiqlasinlar.

4. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi ikki oy muddatda fuqaro muhofazasi bo‘yicha mutaxassis lavozimi joriy etiladigan davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek boshqa tashkilotlar ro‘yxatini tasdiqlash uchun belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

5. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining 5-ilovaga muvofiq ayrim qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari B.A. Xo‘jayev zimmasiga yuklansin.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kundagi barcha vazirliklar ma'lum bir ish yo‘nalishi bo‘yicha harakatlanmoqdalar. Barcha huquqlar qonun bilan belgilanib qo‘yilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublika Adliya vazirligi qoshidagi "Adolat" milliy huquqiy davlat muassasasi.

2. uz.m.wikipedia.org

3. O‘zbekiston Respublikasi favqulotda vaziyatlar vazirligi -Golden Pages